

---

## Giyohvandlik-umr zavoli

Giyohvandlikka qarshi kurashish bo'yicha "Dolzarb oylik" doirasidagi tadbirlar Qo'shtepa tumanida ham har bir ta'lim muassasalarida, korxonada va tashkilotlarda, mahallalarda o'ziga xos tarzda, yuqori saviyada o'tkazilmoqda.

Jumladan, tumandagi 20-maktabning 11-sinf o'quvchilarining bu galgi ma'naviyat soati ham ushbu oylik doirasida o'tkazildi.

"Giyohvandlik-umr zavoli" deb nomlangan ma'naviyat soatida profilaktika inspektori A.Farmonov ishtirok etdi.

Tadbirda yoshlarimizga giyohvandlik, kashandalik, psixotrop dori vositalarini iste'mol qilish salbiy oqibatlariga olib kelishi haqida tushunchalar berildi. Sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, shuningdek, milliy qadriyatlarimizni e'zozlashga o'rgatish bilan birgalikda bu kabi illatlarga qarshi kurash asosiy maqsadimizga aylanishi to'g'risida aytib o'tildi.

Shuningdek, dars davomida giyohvandlikning salbiy illatlari, keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan og'ir oqibatlar aks ettirilgan videorolik ham namoyish etildi.





















2024-10-04 09:45:12